

**TEXNOLOGIYA FANI O'QITUVCHILARINI DIDAKTIK VOSITALARDAN
FOYDALANIB ULARNING MAXSUS KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH
METODIKASI**

Abdishukurov Parviz Shuhrat o'g'li
SHDPI Texnologik ta'lism yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada texnologiya fani o'qituvchilarinining maxsus kompetensiylarini rivojlanirish uchun qo'llash samaraliroq bo'lgan metodlar va o'qitish vositalari haqida fikr yuritilgan. Bunda tashqari maxsus kompetensiya tushunchasiga ta'rif berilib, bu xususiyat texnologiya fani o'qituvchisining faoliyatida Qanday darajada o'rinn egallashi xususida so'z borgan.

Kalit so'zlar: Maxsus kompetensiya, didaktik vositalar, deduktiv, induktiv, kadrlar, kasbiy kompetensiya, pedagogik yondashuv, metodologiya, Forobi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются методы и средства обучения, которые более эффективны для развития специальных компетенций учителей технологии. Кроме того, было определено понятие специальной компетентности и обсуждено, в какой степени данный признак занимает место в деятельности учителя технологии.

Ключевые слова: Специальная компетентность, дидактический инструментарий, дедуктивный, индуктивный, персонал, профессиональная компетентность, педагогический подход, методика, Фароби.

Abstract: This article discusses the methods and teaching tools that are more effective for the development of special competencies of technology teachers. In addition, the concept of special competence was defined, and it was discussed to what extent this feature occupies a place in the activity of a technology teacher.

Key words: Special competence, didactic tools, deductive, inductive, personnel, professional competence, pedagogical approach, methodology, Farobi.

Texnologik ta'lism yo'nalishi talabalari bir kun kelib texnologiya fani o'qituvchilari bo'ladilar. O'qituvchilik davri o'quvchilik davridan murakkabroq bo'lsada, malakaviy rivojlanish Oliy ta'lim muassasalarida shakllanadi. Shu boisdan, talabalarni o'qitish jarayonida, ularning kompetensiylarini rivojlanirish juda muhimdir. Shu o'rinda "Maxsus kompetensiya" nima degan o'rinni savol tug'iladi. Buni quyidagicha tushuntirish mumkin:

"Kompetensiya - 1. Biror kishi juda yaxshi bilgan yoki xabardor bo'lgan masalalar doirasi. 2. Biror kishining vazifalari, huquqlari doirasi "[¹]"

A.V. Xutorskoyning fikriga ko'ra kompetensiya bu shaxsning o'z bilimlari, ko'nikma va tajribalarini ma'lum bir faoliyat yoki muammolarni hal qilishda samarali qo'llay olish qobiliyatidir.[²]

¹ Ожегов С. И. Словарь русского языка- М.:Русский язык 1999.С.248

² Хуторской А. В. "Компетенции образования: опыт проектирования" Москва, 2002

Ushbu ta’riflardan va pedagog olimlar fikrini o’rganib chiqib, maxsus kompetensiya tushunchasini shunday tushunish mumkin: Har qanday bir sohada kishining yuqori darajadagi bilimga, ko’nikmaga va hattoki amaliy bilimlarga ham ega bo’lishini, shu bilan birga o’z sohasidagi yangiliklar va yangicha texnologiyalar, yangicha uslublardan samarali foydalanish, o’z sohasida ijodkorlik

qobiliyatlarini rivojlantirishni, anglatadi. Bu xususiyatlar jadallik bilan rivojlanayotgan texnologiya fanini o’qitishda ayni zarurligini, barcha texnologiya sohasi vakillari anglashi shart. Darhaqiqat, hozirgi zamon texnologiya fani, yaqin tarixdagi “Mehnat” fanidan anchagina farqlanadi. Bunga misol qilib, texnologiya fani tarkibiga kiruvchi zamonaviy texnologiyalar, robototexnika sohasi, hamda maktablarda va o’quv dargohlarida, sohada olib borilayotgan izchil o’zgarishlar, jumladan, o’qitish vaqtida egallangan nazariy bilimlarni, amaliy mashg’ulotlarda ham qo’llanilishini keltirish mumkin. Amaliyot vaqtida nazariy bilimlarni qo’llay olish juda muhimdir. Amaliy dars jarayonida o’qituvchi, o’quvchilarga turli vaziyatlarda qanday yo’l tutishni o’rgata olish va buning uchun o’zi ham, maxsus va kerakli bilimlarga ega bo’lishi muhim sanaladi. Bu esa biz aytib o’tayotgan maxsus kompetensiya tushunchasini biroz bo’lsada ochib beradi.

Xo’sh, bo’lajak texnologiya fani o’qituvchilarinining maxsus kompetensiyalarini qanday rivojlantirish mumkin? Bunga javoban kasbiy kompetensiyaning shakllanish bosqichlarini keltiramiz:

- o’zini o’zi tahlil qilish va zarur narsalarni anglash;
- o’z-o’zini rivojlantirishni, maqsad, vazifa belgilash;
- o’zini namoyon etish va kamchiliklarni tuzatish.^[3]

Demak kasbiy kompetensiya o’z-o’zidan rivojlanmas ekan. Buning uchun talabalarni o’qitish jarayonida kerakli metodologiyadan foydalanish, ayni kerakligi yaqqol namoyon bo’ladi. Talabalarni o’qitishda va ularda maxsus kompetensiyalarini rivojlantirishda, qanday metodlardan foydalanish mumkin? Qanday usul bilan bo’lajak texnologiya o’qituvchilariga ayni kerakli bilim, tajriba va dars jarayonidagi murakkab vaziyatlarda shaxsiy fikrlash, hamda ijodkorlik ko’nikmalarini shakllantirish mumkin? Ushbu o’qituvchi, o’z o’quvchilariga mana shu bilimlarni to’g’ri yetkaza olish, o’quvchilarda ham maxsus bilimlarni shakllantira olishi o’qituvchilardan maxsus pedagogik yondashuvni talab etadi.

Demak nafaqat texnologiya fani o’qituvchilar, balki, barcha ta’lim yo’nalishi vakillarini tayyorlashda, kerakli va samarali metodlardan foydalanish muhim ekan.

Yuqorida so’ralgan – “Qaysi metod?” savoliga tarixdan javob izlab ko’ramiz:

Bizning IX-XII-asrlarda yashab, dovrug‘ qozongan bobokalonlarimiz ham, o’qitish jarayoniga e’tiborli yondashish kerakligini ta’kidlashgan va bu borada bir necha metodlardan foydalanganlar. Masalan: Forobiy o’qitish metodlarining tasnifini ishlab chiqqan. Ularni amaliy va nazariy metodlarga ajratgan, shu tariqa o’qitishning amaliy yo’nalishi va kishilarning hayoti hamda kundalik faoliyati bilan bog’liqligi g’oyalarini olg‘a surgan. Olim o’qitishning tajriba, ko’rsatmalilik, induktiv va deduktiv, amaliy metodlariga alohida e’tibor bergen. Barcha metodlarni o’quvchining hayotiy tajribasiga, mantiqiy tafakkuriga tayangan holda birlashtirgan.^[4] Bundan tashqari Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino,

³ A. Musurmonova, X. Ibragimov, O. Jamoliddinova “Umumiyy pedagogika” I-qism. Toshkent “O’ZBKITOBSAVDONASHRIYOTI” 2020. 275-bet

⁴ Al-Forobi. Математические трактаты- Алматы: Наука, 1972, 327-bet

Umar Xayyom va ularning izdoshlari o'qitish jarayonida didaktik metodlarga e'tibor qaratganlar.

Ayni texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda ham eng samaralisi bu-didaktik vositalardir. Talabalarni o'qitish jarayonida ularda maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish uchun turli vositalardan foydalanish, ko'zlangan maqsadni berishi mumkin. Qolaversa texnologiya fani amaliy va ijodiy fanlar sirasiga kiradi. Kadrlar tayyorlash jarayonida didaktik vositalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. OTM larda texnologiya fanini o'qitishda, ayniqsa bunday vositalardan foydalanish juda muhimdir. Chunki hozirda maktablarda ham ustaxonalar va o'quv-amaliyat xonalarining tashkillashtirilganligi, shu bilan birga amaliy dars berish jarayoni fan o'qituvchisidan maxsus bilimni talab etadi. Bo'lajak o'qituvchilarni bunga tayyorlash uchun, didaktik vositalar ayni qo'l keladi.

Masalan, talabalarga dars berish jarayonida, ko'rgazmali darslar tashkil etilishi, amaliy bilimlarni berilishi, ushbu bilimlarni mustaqil sinab ko'rishlari, maxsus fanga oid materiallardan foydalanish orqali maxsus bilimlarni shakllantirish, shular jumlasidandir.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tishimiz kerak-ki, texnologiya fani o'qituvchilari yetarli darajada amaliy va nazariy bilimga ega bo'lishi zarur. Zamonaviy va yetuk o'qituvchi tayyorlash uchun esa, talabalarda maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish muhim o'rinn tutadi. Yuqorida fikrlardan kelib chiqqan holda, shuni aytish joizki, bu natijaga erishish uchun samarali metodlar va vositalardan foydalanish kerak. Didaktik tamoyillar va didaktik vositalardan foydalangan holda, ko'zlangan maqsadga erishish mumkinligi yaqqol ko'rinish turibdi. Chunki Texnologiya fani o'qituvchilari nafaqat nazariy, balki, amaliy bilimga ham ega bo'lishi zarur. Bunday bilimni va maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish uchun didaktik vositalar ayni muddaodir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ожегов С. И. Словарь русского языка- М.:Русский язык 1999.С.248
2. Хуторской А. В. “Компоненты образования: опыт проектирования” Москва, 2002
3. A. Musurmonova, X. Ibragimov, O. Jamoliddinova “Umumiy pedagogika” I-qism. Toshkent “O'ZBKITOBSAVDONASHRIYOTI” 2020.
4. Al-Forobiy. Математические трактаты- Алматы: Наука, 1972, 327-bet
5. R. Mavlonova “Pedagogika”, Toshkent. : “o'quvchi” 2001